

ASOSIY VOSITALARNI QAYTA BAHOLASHNING HISOBI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Buxgalteriya kafedra” assistenti

Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Usmonova Rushana To'lqin qizi

Annotatsiya. Maqolada asosiy e'tibor asosiy vositalarning hisobini yuritish, ularni tan olish, dastlabki va keyingi baholash, qayta baholash jarayonlari hamda ushbu ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish tartiblariga qaratilgan. Shu bilan birga, amaldagi buxgalteriya standartlarida qo'llaniladigan yondashuvlar va ularning amaliyotdagi ahamiyati ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, qayta baholash. xalqaro standartlar, asosiy vosita, hisobot.

Kirish. Har qanday ishlab chiqarish jarayonining negizida inson mehnati turadi. Mehnat faoliyatining samarali bo'lishi esa mehnat vositalari hamda mehnat ob'ektlarining mavjudligiga bog'liq. Ishlab chiqarish davomida korxona xodimlari turli mehnat qurollari yordamida mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatib, ularni turli ko'rinishdagi tayyor mahsulotlarga aylantiradi. Mexanizmlar, bino va inshootlar, uskunalar kabi mehnat vositalari hamda mehnat ob'ektlari korxonaning asosiy aktivlarini shakllantiradi va ular qiymat ko'rinishida ifoda etilgan ishlab chiqarish vositalarini tashkil etadi. Shuningdek, korxonaning moddiy-texnik bazasi aynan shu mehnat vositalari va ob'ektlari orqali ta'minlanadi, ular birgalikda ishlab chiqarish vositalari sifatida qaraladi. Mehnat vositalari – asosiy fondlarning moddiy qismi bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat ishtirok etadi. Shu jarayonda ular o'zining jismoniy shaklini saqlab qolgan holda qiymatini asta-sekin, bosqichma-bosqich ishlab chiqarilgan mahsulotlarga o'tkazadi. Bu xususiyat asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Asosiy qism. Turli manbalarda asosiy vositalarga berilgan ta'riflar bir-biridan farq qiladi. Tadqiqot jarayonida biz ushbu yondashuvlarning bir nechtasini ko'rib chiqdik. Umumiy xulosaga ko'ra, asosiy vositalar — bu quyidagi talablarga javob beradigan moddiy aktivlardir:

- (a) mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, yetkazib berish, boshqa shaxslarga ijaraga topshirish yoki ma'muriy vazifalarni bajarishda foydalanish uchun mo'ljallangan;
- (b) bir yildan ortiq muddat davomida xizmat qilishi kutiladigan aktivlar hisoblanadi.

5-sonli Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartida (MHXS) asosiy vositalar uzoq muddatli aktivlar sifatida talqin qilinadi. Uzoq muddatli aktivlar — bu hisobot davridan keyingi 12 oydan ko'proq vaqt davomida iqtisodiy foyda keltirishi kutilayotgan mablag'lar yoki mulk turlari sifatida ko'rib chiqiladi.

Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida esa asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida mehnat vositasi sifatida xizmat qiladigan, 12 oydan ortiq foydalanish muddati mavjud bo'lgan mulkning bir qismi sifatida belgilangan. Bu ta'rif ayniqsa mulkning xizmat muddati va ishlab chiqarish jarayonidagi roli bilan ajralib turadi.

Asosiy vositalar — bu korxona uzoq muddat foydalanadigan va o'z faoliyati davomida daromad olishga xizmat qiladigan moddiy aktivlardir. Ularning asosiy xususiyati shundaki, bunday aktivlar bir yil ichida na iste'mol qilinmaydi, na naqd pulga aylantirilishi kutiladi. Shu bois ular kapital yoki uzoq muddatli moddiy aktivlar sifatida ham yuritiladi. Buxgalteriya balansida bunday aktivlar odatda joriy aktivlardan keyin, alohida bo'lim sifatida ko'rsatiladi. Asosiy vositalarning maqsadi korxonaning normal faoliyatida qayta sotish emas, balki mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni ta'minlashdan iborat.

16-sonli MHXS “Asosiy vositalar” standartiga ko'ra, asosiy vositalarning keyingi baholanishi ikki usuldan biriga asoslanadi: boshlang'ich qiymat modeli yoki qayta baholash modeli.

Aktiv dastlab tan olinganidan so'ng, u jamg'arilgan eskirish (amortizatsiya) va

qadrsizlanish bo'yicha yetkazilgan zararlar chegirilgan holda, o'zining boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobda yuritiladi. Bu modelning afzalligi soddaligi va hisob-kitobning aniqligidir.

Agar asosiy vosita obyektining haqqoniy (bozor) qiymatini ishonchli aniqlash mumkin bo'lsa, u muntazam ravishda qayta baholangan qiymatda aks ettiriladi. Qayta baholangan summa, jamg'arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishdan keyingi real qiymatni ifodalaydi. Ushbu modelda qayta baholash yetarlicha tez-tez amalga oshirilishi shart, chunki balansda ko'rsatilgan qiymat obyektning haqiqiy bozor bahosidan sezilarli farq qilmasligi lozim.

Boshlang'ich qiymat – bu asosiy vositalarning hisob qiymati bo'lib, o'z ichiga sotib olish bahosi, shuningdek, tashib keltirish, o'rnatish, montaj, o'rgatish, safar, bojxona xarajatlarini va qo'shilgan qiymat solig'ini oladi. Asosiy vositalar ushbu qiymati bo'yicha korxonada butun xizmat muddati davrida hisobda turadi.

Tiklangan qiymat – bu asosiy vositalarning qayta baholash, kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilingandan keyingi qiymati. Bu qiymat vaqtinchalik bo'lib, qo'shimcha qilingan xarajatlar va qayta baholash natijasi asosiy vositalar qiymatiga kiritilgach boshlang'ich qiymat bo'lib qolaveradi.

Qoldik qiymat – bu asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati va jamlangan eskirish summasi o'rtasidagi farqi. Bu qiymatni balans qiymati ham deb ataydilar, chunki aynan shu qiymatda asosiy vositalar korxonaning balansida aks ettiriladi.

Sotish qiymati – bu asosiy vositalarning sotish vaqtida sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida kelishilgan shartnomaviy qiymat. Foydalanish qiymati - Aktivdan doimiy foydalanish va uning foydalanish muddati oxirida uni tasarruf etishdan kutilayotgan taxminiy kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymati.

Xulosa. Asosiy vositalarni tan olish, ularni baholash va buxgalteriya hisobida aks ettirish jarayonida xalqaro buxgalteriya standartlariga amal qilish korxonalar uchun nafaqat hisob yuritish tartibining aniqligini, balki moliyaviy natijalarning shaffofligini ham ta'minlaydi. Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi eng

muhim resurslardan biri bo'lgani sababli, ularni to'g'ri baholash korxonaning haqiqiy iqtisodiy holatini ko'rsatishda asosiy omil hisoblanadi. Asosiy vositalar bo'yicha to'g'ri tashkil etilgan buxgalteriya hisobi korxonaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, xarajatlar va aktivlar boshqaruvini samarali yo'lga qo'yish hamda korxona raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. MHXS 5 “Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat “
- 2 Kunduzova, K. I., Qudbiyev, N. T., & Asatullayeva, N. Y. Q. (2022). Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobini takomilashtirish masalalari. Scientific progress, 3(3), 837-846.
3. 5-son BHMS “Asosiy vositalar”
- 4 Abdullayeva N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya tizimi.—Toshkent: “Innovatsiya”, 2022.
- 5 Raxmonov Sh. Investitsiyalar buxgalteriyasi va moliyaviy boshqaruv asoslari. — Toshkent: “Fan va taraqqiyot” ,2019.